

3. Савченко Е.М. Использование компьютера на уроках математики //Начальная школа. – 2006. – №5. – С. 56-57.

МАКТАБГА ТАЙЯРЛОВ ГУРУХ БОЛАЛАРИНИ САВОДГА О'RGATISHDA MULTIMEDIA TEХНОЛОГИЯСИДАН FOYDALANISH МЕТОДЛАРИ

**Utegenova Dilnoza
O'zbekiston, Navoiy davlat pedagogika instituti
1-kurs doktoranti**

Annotatsiya. Maqola multimedia ta'lif texnologiyalari asosida bolalarda savodxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish muammosiga bag'ishlangan. Maqolada multimedia ta'lif texnologiyalari asosida bolalarni savodxonlikka o'rgatish, bolalarning nutqi va aqliy faoliyatini faollashtirish, ularni xalqning ma'naviy qadriyatlari bilan tanishtirishning nazariy va uslubiy asoslarini ishlab chiqish zarurligi olib berilgan.

Kalit so'zlar. Multimedia, savodxonlik, axloqiy tarbiya, dunyoqarash, axloq, xalq pedagogikasi, umuminsoniy qadriyatlar.

МЕТОДЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МУЛЬТИМЕДИЙНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ ГРАМОТНОСТИ ДЕТЕЙ ГРУППЫ ШКОЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ

Аннотация. Статья посвящена проблеме формирования навыков обучения грамоте детей на основе мультимедийной технологий образования. В статье раскрывается необходимость разработки теоретических и методических основ обучения грамоте детей на основе мультимедийной технологий образования, активизацию речевой и мыслительной деятельности детей, приобщения их к духовным ценностям народа

Ключевые слова. Мультимедия, обучение грамоте, нравственное воспитание, мировоззрение, нравственность, народная педагогика, общечеловеческие ценности.

METHODS OF USING MULTIMEDIA TECHNOLOGY IN TEACHING LITERACY TO CHILDREN OF THE SCHOOL PREPARATION GROUP

Annotation. The article is devoted to the problem of developing literacy skills in children based on multimedia educational technologies. The article reveals the need to develop theoretical and methodological bases for teaching children literacy, activating children's speech and mental activity, and introducing them to the spiritual values of the people on the basis of multimedia educational technologies.

Keywords. Multimedia, literacy, moral education, worldview, ethics, folk pedagogy, universal values.

Jahon hamda jamiyatda har bir ota – ona o‘z farzandini eng bilimdon, yuksak odob egasi, mahoratli ijodkor, tadbirkor tarbiyachiga berishni istaydi.

Maktabgacha ta`lim o‘quv tarbiya faoliyatini tashkil qilish vosita va usullarini, o‘quv tarbiya jarayonida kelib chiqadigan muammolar va uni yechishni to‘g’ri hal qila bilish, innovatsion texnologiya usullaridan foydalanish, qiyinchiliklarni to‘g’ri yechimini topishga yo‘naltiradi.

Maktabgacha ta`lim-tarbiya masalalari eng muhim asosiy pedagogik munosabatlar sabablarini aniqlaydi, uni pedagogik jarayonda o‘rganadi.

Inson kamolotiga qaratilgan, xalq yaratgan boy tajriba, ilmiy tadqiqotga doir nazariy va metodik manbalarga Markaziy Osiyo va jahon mutafakkir, ma`rifatparvar pedagog olimlarning asarlariga suyangan holda komil insonni tarbiyalashning qonun, qoida va tamoyillariga asoslanadi.

Ta`lim - tarbiya masalalari, har bir millatning milliy merosiga, umumbashariy qadriyatlariga bog’langan holda bog’cha yoshidan boshlab o‘zligini anglash, erkin fikrlash, g’urur tuyg’ularini shakllantirishga qaratiladi.

Hozirgi kunda ta`lim jarayonida interfaol uslublar innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanib, ta`limning samaradorligni ko‘tarishga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar qo‘llanilganda pedagoglar egallayotgan bilimlarni o‘zları qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zları keltirib chiqarishlariga qaratilgan. Tarbiyachi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi. Shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchi vazifasini bajaradi. Bunday o‘quv jarayonida pedagog asosiy figuraga aylanadi.

Pedagog olimlarning yillar davomida ta`lim tizimida Nega o‘qitamiz? Nimani o‘qitamiz? Qanday o‘qitamiz? degan savollarga javob izlash bilan bir qatorda qanday qilib samarali va natijali o‘qitish mumkin? degan savoliga javob beradilar. Bu esa olim va amaliyotchilarni ta`lim-tarbiya jarayonini texnologiyalashtirishga, ya`ni «O‘qitishni ishlab chiqarishga oid aniq kafolatlangan natija beradigan texnologik jarayonga aylantirishga urinib ko‘rish mumkin» degan fikrga olib keladi. Bunday fikrning tug‘ilishi pedagogika fanida yangi pedagogik texnologiya yo‘nalishini yuzaga keltiradi. Bugungi kunda maktabgacha ta`lim muassalarining ta`lim- tarbiyaviy jarayonda pedagogik texnologiyalardan foydalanishiga alohida e’tibor berilayotganligining asosiy sababi quyidagilardir:

Birinchidan: pedagogik texnologiyalarda shaxsni rivojlantiruvchi ta`limni amalga oshirish imkoniyatining kengligida. «Ta`lim to‘g’risida»gi Qonunda rivojlantiruvchi ta`limni amalga oshirish masalasiga alohida e’tibor qaratilgan.

Ikkinchidan: pedagogik texnologiyalar o‘quv-tarbiya jarayoniga tizimli faoliyat yondashuvini keng joriy etish imkoniyatini beradi.

Uchinchidan: pedagogik texnologiya pedagogni ta`lim-tarbiya jarayonining maqsadlaridan boshlab tashxis tizimini tuzish va bu jarayon kechishini nazorat qilishgacha bo‘lgan texnologik zanjirni oldindan loyihalashtirib olishga undaydi.

To‘rtinchidan: pedagogik texnologiya yangi vositalar va axborot usullarini qo‘llashga asoslanganligi sababli, ularning qo‘llanilishi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablarini amalga oshirishni ta`minlaydi.

Ta`lim-tarbiya jarayonida pedagogik jarayonni to‘g’ri tashkil etilishi pedagogning bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Bu esa tarbiyalanuvchilardan ko‘p mustaqillikni, ijodni va irodaviy sifatlarni talab qiladi.

Har qanday pedagogik texnologiyalarning o‘quv- tarbiya jarayonida qo‘lanilishi shaxsiy jihatdan kelib chiqqan holda tinglovchini kim o‘qitayotganligi va pedagog kimni o‘qitayotganiga bog’liq.

Pedagogik texnologiya asosida o‘tkazilgan mashg’ulotlar yoshlarning muhim hayotiy yutuq va muammolarga o‘z munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini- oshirib, ularni fikrlashga, o‘z nuqtai nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi.

Hozirgi davrda sodir bo‘layotgan innovatsion jarayonlarda ta’lim tizimi oldidagi muammoarni hal etish uchun yangi axborotni o‘zlashtirish va o‘zlashtirgan bilimlarini o‘zlarini tomonidan baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslarga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydag‘i PQ-4312-soni “O‘zbekiston Respublikasi mактабгача ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” qarori. – Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 10.05.2019-y., 07/19/4312/3106-sон; 09.10.2020-y., 07/20/4857/1357-sон.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. - Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020-y., 03/20/637/1313-sон.
3. Aripov M. Informatika va axborot texnologiyasi asoslari. - T.:Universitet, 2001. Adilova S. Multimedia va ularni ta’lim jarayonida qo‘llash // Pedagogikta’lim-T.: TDPU, 2001. № 2. -B. 20-21

ВОЗМОЖНОСТИ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОБРАЗОВАНИИ КАК СОВРЕМЕННАЯ ИННОВАЦИОННАЯ ТЕХНОЛОГИЯ ОБУЧЕНИЯ

**Салимов Уткиржон Шайдуллаевич
Термезский государственный педагогический институт
Узбекистан, г.Термез**

Аннотация. Статья исследует потенциал искусственного интеллекта (ИИ) в сфере образования как современной инновационной технологии обучения. Раскрывается влияние ИИ на преобразование традиционных методов обучения и создание новых возможностей для студентов и